билимларга эга бўлишни ва энг муҳими масъулиятни ҳис қилиш талабини кўяди. Агарда тузилган оила жамиятнинг бир бўлаги сифатида такомиллашмаса ёки “ўсмаса”, айниқса маънан ва руҳан тараққий этиб бормаса, оиладаги томонларнинг ўзаро вазифалари ва қизиқишлари аниқ белгиланмай қолса, бундай оиланинг келажаги фаровон бўлмайди. Шунинг учун муваффақиятли оила меъёрлари, яъни андозаларини ёки алгоритмларини белгилашдан аввал бир нарсага аҳамият беришимиз даркор.

Оила энг мураккаб гуруҳлардан ҳисобланади. У нафақат жиддий ёндошувни, оила қураётганлар бир бирларини синчковлик билан ўрганиб чиқишини, балки кейинчалик ҳам бутун ҳаёт давомида деярли ҳар куни, керак бўлса ҳар соатда умр йўлдошлар бир-бирларига бўлган муносабатлари хусусида чуқур фикр юритишларини талаб қилади. Шундагина оила бахтли, соғлом ва узоқ давом этади. Шунга кўра, муваффақиятли оила моделини (модулини) яратиш учун соғлом турмуш тарзини белгиловчи барча жиҳатларнинг андозаларини аниқлаб чиқиш керак. Аввалига бўлажак турмуш ўртоқларнинг ҳар бири учун алоҳида, сўнг ушбу андозаларни амалий бажарилишига кўмаклашувчи механизмларни топиш даркор, яъни фаровон оилани яратиш йўлларини аниқлаш зарур, бошқача қилиб айтганда, алгоритмларни ишлаб чиқиш лозим. Бунда маънавий; психологик; жисмоний; тиббий жиҳатлар инобатга олиниши лозим.

Маънавий жиҳатлар меъёрлари - эркаклар учун ҳам , аёллар учун ҳам бир хил, яъни оила фаровонлигини таъминловчи ижобий фазилатларга асосланган бўлиши зарур: билим даражаси, ўқимишлилик даражаси, масъулият, дунёқарашнинг бир бирига мослиги, маданияти, такомиллашишга интилиш туйғуси.

Психологик жиҳатлар меъёрлари - қуйидаги фазилатларда намоён бўлиши мумкин; толерантлик, яъни ҳамжиҳатликда, жон қуярликда, оқилаликда, одоб-ахлоқда ва хушмуомалаликда. Аёллар эса бокиралик, мулойимликни шакллантиришлари лозим, ҳамиша ўзиникини уқтиришга

интилишдан қочишлари керак. Руҳий меъёрларни шакллантирувчи алгоритм бевосита маънавий алгоритм билан боғлиқ ва кўп жиҳатдан ёшларнинг таълим-тарбиясига бориб тақалади.

Жисмоний жиҳатлар меъёрлари - жисмонан комиллика интилиш, тренажёр заллар, фитнес клубларга бориб туришга ундовчи ҳаракатларда ўз аксини топади, яъни жисмоний соғломлашиш нуқтаи назаридан ҳаёт тарзи фалсафасини тараққий эттириш омилларини ҳисобга олиш зарур.

Тиббий жиҳатлар меъёрлари - авваламбор турли касалликларни аниқлаш, айниқса наслдан наслга ўтувчи ёки ижтимоий хасталиклар (туберкулёз, ОИВ/ОИТС, жинсий йўл билан юқадиган касалликлар)ни аниқлашга йўналтирилган бўлиши лозим. Лекин бошқа томондан ёндошадиган бўлсак, ижобий меъёрлар бўлажак турмуш ўртоқларнинг ўз саломатлигига масъулиятли бўлишларига даъват этиши шарт. Хўш, муваффақиятли оила қуриш меъёрлар белгиланган натижаларга қандай қилиб эришиш мумкин? Соғлом турмуш тарзи психологиясини шикллантириш йўллари ҳамда механизмлари ёки алгоритмлари бир тизимга асосланган, бир мақсадга йўналтирилган ва ўсиб бораётган авлод тарбиясидаги босқичма-босқичлик асосида белгиланади. Жараёнга давлат, нодавлат ҳамда жамоат ташкилотларини, энг муҳими таълим муассасаларини жалб қилган ҳолда ижобий натижага эришиш мумкин. Боғчалардан бошлаб, мактаб, лицейлар, коллеж ҳамда Олий ўқув юртларида ҳам жамоат ташкилоти тариқасидаги аҳамияти муҳимлиги сезилиши лозим, чунки айнан маҳалла оилада фаровонликни шакллантиришга таъсир ўтказади. Шу билан бир қаторда ёшлар ўртасида ижобий меъёрларни шакллантиришда халқимизнинг анъаналари, менталитетимиз, урф-одатларимиз ва ҳар бир оиланинг авлоддан авлодга ўтиб келаётган анъаналарига асосланиш керак. Аждодларга бўлган эҳтиром ёш авлод тарбиясида катта малҳамдир.

Ёшлар орасида маънавият ва маданиятни шакллантириш - мураккаб ва кўп қиррали, у ёки бу оиланинг ўзига ҳосликлари, атроф-муҳит ҳамда

шароитларидан келиб чиққан ҳолда, ёндошувни талаб қиладиган жараён. Мамлакатимизда ёш авлод тарбиясида маънавий масаласига жуда катта аҳамият берилади. “Маънавийт-маърифат” марказлари, “Оила илмий-амалий тадқиқот” марказлари ва маҳаллалар самарали фаолият юритибгина қолмай, ёш авлод тарбиясидаги маънавий масаласи давлат миқёсидаги мавқега эга ва барча таълим муассасаларида ёшларнинг маънан комил бўлиб вояга етишлари учун жавобгар бўлиши зарур.

Барчамизга маълумки, ўзбек оиласида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, кўпроқ оила (аёллар)га боғлиқ: оила аъзоларининг жисмоний тарбияга муносабати, тоза-озодалиги, орасталиги, болалар режими, тарбияси (овқатланиш тартиби, кийиниш маданияти, ҳордиқ чиқариш, дарс қилиш) ва ҳақозолар.

Шу боисдан ҳам, бугунги кунда мамлакатимизда долзарб ва аҳоли саломатлигининг манбаи ҳисобланадиган жисмоний тарбияга аҳамиятни кучайтириш, унинг барча оилаларга кириб боришига эришиш учун жойларда аёлларни бу ишга кенг жалб этиш – оилавий спортни тарғиб этиш давр талабидан келиб чиқмоқда.

Оилавий спорт билан шуғулланиш, энг аввало, ўша оила мустаҳкамлигини, саранжом-саришталиги ва фаровонлигини таъминлайди. Бундай оилада барча ёшдаги оила аъзолари саломатликлари мустаҳкам, маънавий муҳит мўътадил, ўзаро муносабат яхши, ҳар бир оила аъзосининг ўқишга, ишга иштиёқи баланд, кайфияти ҳамиша кўтаринки бўлади. Ана шу оилада меҳр-оқибатлилик, меҳрибонлилик, масъулиятлилик, эътиборлилик одатдаги ҳол ҳисобланади.

Жисмоний тарбия ва спорт фақат аҳолини соғломлаштириш воситаси эмас, балки ҳордиқ чиқаришни оқилона ташкил этиш, инсоннинг умумий маданиятини, бошқа инсонлар билан муомала маданиятини, ёш авлоднинг маънавий юксалишини шакллантирадиган омил ҳам ҳисобланади. Жисмоний тарбия ва спорт фақат соғломлаштиришда ва ижтимоий муаммоларни ҳал

этишда эмас, балки аҳоли (айниқса ёшлар) ўртасида учраб турадиган маънавий ва жисмоний носоғлом муҳит ўчоғини сўндирадиган воситадир. Жисмоний тарбия (спорт)ни ўзига одат қилиб олган ёшларда “бўш (бекорчи) вақт”га ўрин қолмайди.

Қайд этиб ўтилган ижобий самараларга эришиш учун эса, мазкур йўналишда юртимизда олиб борилаётган ишларни янада кучайтириш, барча турдаги оммавий ахборот воситаларидан ва кенг жамоатчилик кучидан мақсадли фойдаланган ҳолда, аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзини мунтазам равишда кенг тарғибот қилиш, оилаларга мўъжаз спорт жиҳозларини олиб кириш, маҳаллаларда, таълим масканларининг барча бўғинларида спорт залларини, майдончаларини замон талабларига хос ва мос равишда барпо этиш ва тегишли жиҳозлар билан тўлиқ таъминлаш, спорт тўғараклари, секциялари турларини кўпайтириш, ушбу даргоҳларда фаолият олиб бориши учун маҳаллий кадрларни тайёрлаш, оилавий спорт билан шуғулланадиган, ва уни тарғибот этадиган фаол жамиятимиз аъзоларини рағбатлантириб бориш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Юқоридагилардан хулоса қилиб таъкидлаш мумкинки, соғлом турмуш тарзи, бир томондан, инсоннинг жисмоний саломатлиги ва камолотини назарда тутса, иккинчи томондан, инсон маънавий ва мафкуравий саломатлиги, унинг шахс сифатидаги тўла камол топишининг асосини ташкил қилади. Нафақат жисмоний, балки ижтимоий, рухий жиҳатдан ўзини соғлом ҳис қилган одамгина жамиятнинг фаол аъзоси бўлиб, ўзига ва атрофидагиларга наф келтириши мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. Bennet, G. (1987) *The Wound and the Doctor: Healing Technology and Power in Modern Medicine*. London: Seeker & Warburg.
2. Borril, C. S., Wall, M. A., West, G. E., et al (1996) *Mental Health of the Workforce in NHS Trusts*. Leeds: Institute of Work Psychology, University of Sheffield & Department of Psychology, University of Leeds.

3. Обидов А. О., Новиков Ю.В. Соғлигимиз ўз қўлимизда. Тошкент. “Медицина” 1989.

4. В.М.Шапиро Л.Н.Башмакова. Здоровый образ жизни. Пособие для учителей. Алмата. 2003.

**DIFFERENTIATION - ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL
PROCESS TAKING INTO ACCOUNT THE SPECIFICITY OF
PSYCHOLOGICAL PROCESSES AND PROPERTIES OF STUDENTS'
PERSONALITY**

Yakhshimuradova G. A
teacher, independent researcher of the TSPU named after Nizami

Abstract. The article deals with the psychological and methodological aspects of differentiated teaching of literature. In the process of differentiated learning, psychological processes and personal characteristics of students, teaching methods and levels of educational and cognitive activity are taken into account.

Key words: differentiated learning, psychological processes, teaching methods, literary text, personal characteristics.

**DIFFERENTSIATSIYA-PSIXOLOGIK JARAYONLARNING
O'ZIGA XOSLIGI VA TALABALAR SHAXSINING XUSUSIYATLARINI
HISOBGA OLGAN HOLDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH**

Yaxshimuradova G.A
Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada adabiyotni tabaqalashtirilgan o'qitishning psixologik va uslubiy jihatlari haqida so'z boradi. Tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning psixologik jarayonlari va shaxsiy xususiyatlari, o'qitish usullari va o'quv va kognitiv faoliyat darajalari hisobga olinadi.

Kalit so'zlar: tabaqalashtirilgan ta'lim, psixologik jarayonlar, o'qitish usullari, badiiy matn, shaxsiy xususiyatlar.

ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ - ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА С УЧЕТОМ СПЕЦИФИКИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И СВОЙСТВ ЛИЧНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Яхимурадова Г. А.

преподаватель, независимый исследователь ТГПУ им. Низами

Абстракт. В статье рассматриваются психологические и методические аспекты дифференцированного преподавания литературы. В процессе дифференцированного обучения учитываются психологические процессы и личностные особенности учащихся, методы обучения и уровни учебно-познавательной активности.

Ключевые слова: дифференцированное обучение, психологические процессы, методы обучения, художественный текст, личностные характеристики.

The success of training largely depends on how teachers manage to connect the learning process with the psychological processes in the minds of students and the qualities of mental development. An important and complex mental process is perception, which reflects the totality of an object or phenomenon and all its qualities as a whole. The process of perception depends on the degree of mental development, previous knowledge, experience and knowledge of a person. As P. I. Pidkasisty [1, p. 51] proves, the peculiarities of perception largely determine the quality of education: firstly, it is necessary to determine the goals and objectives of perception and direct this process. Secondly, the lessons must be prepared for perception, which depends on the age of the students and their assimilation of the previous material. Thirdly, for perception to be effective, the material must be presented according to a certain algorithm, divided into semantic parts, the main points must be highlighted and fixed. Fourth, perception improves when the various senses are involved in the learning process. students not only listen to the teacher, but also consider visual material, participate in the discussion of problem situations, analyze the information received. Finally, perception improves when students become aware of their responsibility and control over their knowledge,

that is, how much material they need to master in order to get a satisfactory grade, and how much material they need to master in order to get a higher grade.

The most complex mental process is imagination, which is especially important when studying literature, where understanding is impossible without the ability to think in images. Recreative and creative imagination training promotes discovery, self-discovery, the creation of new works, and the development of one's own creativity through new ways of working.

The most important cognitive process in the psychology of learning is memory. Learning cannot take place without reproduction, explanation and real use of information. At school age, you can develop and improve both mechanical and logical memory. Logical memory is based on the involvement of thinking, correlation of new information with previously studied, analysis, generalization and interpretation.

According to P.Ya. Galperin [2], the activity of thinking occurs first on the basis of the perception or reflection of a material object, and then only in terms of speech expressions that do not depend on either the object or its reflection. At the final stage, the action takes place in consciousness through speech "by itself"; in the understanding of B.M. Teplov, in order to learn to understand and think, it is necessary to develop individual abilities; B.M. Teplov argues that "although it cannot be reduced to existing skills, abilities and knowledge, one can take into account the ease and speed of acquiring this knowledge and skills" [3, 10-11p.]. Intellectual abilities include the ability to analyze, compare, identify significant features and relationships, form hypotheses, generalize and make independent judgments. The development of competence leads to self-acquisition of knowledge, and this process plays a key role in the development of competence.

A competent teacher who understands the need for differentiation of teaching to improve the quality of education must comprehensively study and take into account the psychological characteristics of each student. It is important to understand the characteristics of students' thinking (productive and creative),

memory (volitional and involuntary), especially recognition, recall, memorization, reproduction, attention (the ability to concentrate on the object of study), imagination (especially creative), willpower (the ability to achieve goals) and emotions.

L.S. Vygotsky established that the thinking of students develops when the teacher determines a specific program of action for them. In this case, subsequent tasks are in the "zone of proximal development", and the training itself "should run ahead of development" [4, 447-448s.]. The transition to new modes of action in the learning process contributes to the development of thinking. The Polish scientist V. Okon writes "Only in those cases when a person needs a new mode of action, conditions appear that lead to development" [5, 196]. Only specially organized training, focused not on the simple reproduction of knowledge, but on their independent search in optimal conditions for each, develops the thinking and speech of students.

In the process of differentiating learning, an important role is played by taking into account the personal qualities and abilities of students. Schools and the entire system of education and upbringing must create the best conditions for the development of children. For a long time, schools focused on the "average" student and considered group learning necessary. What was taken into account was what united the students on certain grounds. Today it is more important to differentiate students in order to teach each student to find solutions himself, to evaluate various facts and phenomena.

P.P. I. Pidkasisty and M.L. Portnov [6, 11-16] describe a procedural-operational system of cognitive activity, during which an ordered system of scientific knowledge is recreated in students. Scientists have proven that "the operations and rules used in the reproduction of the described phenomena are universal" and "they are applicable to all subjects of the theoretical course, regardless of their content" [6, 13]. However, if in the lessons of the natural-mathematical cycle, in addition to the conceptual language, students need to

master the language of formulas, and in the lessons of the social science cycle, the language of concepts and signs, then in the lessons of literature without an artistic and creative component, mastering the language of concepts is impossible, which also affects differential learning.

Thus, the cognitive activity of students is characterized by two types of assimilation: reproducible and predictable. At the explanatory-illustrative and reproductive levels, the educational material is easily absorbed by the student in finished form and reproduced in his speech practice. At the level of search, research and systematization of information, students, as it were, create a hypothesis of the information they are trying to acquire. Knowledge is constructed in the mind, then the method of obtaining it is determined, and finally conclusions and generalizations are formulated, after which students check the correctness of their assumptions with the textbook and the opinion of the teacher.

References

1. Пидкасистый, П. И. Организация учебно-познавательной деятельности студентов Образование XXI века. (2005)
2. Гальперин П. Я. Лекции по психологии М.: Книжный дом «Университет»; Высшая школа, 2002;
3. Теплов Б. М. Проблемы индивидуальных различий. - М., 1961
4. Выготский Л. С. Избранные педагогические исследования. - М., 1956
5. Окунь В., введение в общую дидактику: Учебное пособие 1990, Высш. Школа
6. Пидкасистый П. И., Портнов М. Л. Искусство преподавания. Первая книга учителя. - М.: Педагогическое общество России, 1999

ТА’ЛИМДА КОМПЬУТЕР ИМИТАЦИОН МОДЕЛЛАРДАН FOYDALANISHNING METODIK JIHATLARI

Lutfillaev Maxmud Xasanovich

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, kompyuter ilmlari
va texnologiyalari fanlari kafedrası professori**

Meliyeva Mohinur Baxromovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada umumta’lim maktablarda ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishda kompyuter imitatsion modellari asosida elektron ta’lim resurslarini yaratish va qo’llashga doir Xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili keltirilgan.

Kalit so’zlar: Model, elektron ta’lim resurslari, raqamli texnologiyalar, modellashtirish, imitatsion modellashtirish, matematik model.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ МОДЕЛЕЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Лутфиллаев Махмуд Хасанович

**Самаркандский государственный университет имени Шарофа
Рашидова, кафедра компьютерных наук и технологий, профессор,**

Мелиева Мохинур Бахромовна

Самаркандский государственный университет имени Шарофа

Рашидова, докторант

Аннотация: В статье представлен анализ научно-исследовательских работ зарубежных и отечественных ученых по созданию и применению электронных образовательных ресурсов на основе компьютерных имитационных моделей для повышения эффективности образовательного процесса в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Модель, ресурсы электронного обучения, цифровые технологии, моделирование, имитационное моделирование, математическая модель.

METHODOLOGICAL ASPECTS OF USING COMPUTER SIMULATION MODELS IN EDUCATION

Lutfillaev Makhmud Khasanovich

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Department of Computer Science and Technology, Professor,

Melieva Mokhinur Bakhromovna

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, doctoral student


Annotation: The article presents the analysis of the scientific research works of foreign and domestic scientists on the creation and application of electronic educational resources based on computer simulation models to increase the effectiveness of the educational process in general education schools.

Key words: Model, e-learning resources, digital technologies, modeling, imitation modeling, mathematical model.

Bugungi jamiyat hayotida raqamli, innovatsion sohaning rivojlanishi ortidan, ta'lim sohasida intellektual, axborot va ilmiy-texnik mahsulotlar ulushining o'sishi kuzatilmoqda. XXI asrda raqamli texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida ta'lim sohasida ham qator o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ushbu o'zgarishlarga zamonaviy pedagog, unga mos o'quvchi-talabalar — jamiyat rivojlanishining bir bosqichidan boshqa, yanada ilg'or bosqichga o'tishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda ro'y bergan jamiyatdagi umumiy o'tish davri rivojlanishning barcha pog'onalarini: qobiliyatlar, ehtiyojlar, bilim va ko'nikmalarning ma'lum bir darajasiga ega bo'lgan insonni; ishlab chiqarishning texnologik usulini, huquqiy, milliy, siyosiy munosabatlarni, ma'naviy qadriyatlar olami: fan, ta'lim, madaniyat, mafkura kabilarni qamrab olmoqda. Xuddi shu vaziyatda insonga axborot kommunikatsion texnologiya vositalari bilan birga o'rganish jarayonini tezlashtirish va qulaylashtirish uchun kompyuter imitatsion

model (KIM) tushunchasi kirib kela boshladi. Ushbu atama nafaqat ta'lim sohasida balki boshqa sohalarda ham qo'llanila boshladi.

Model (lot. modulus – o'lchov, me'yor) – biror ob'ekt yoki ob'ektlar tizimining obrazi yoki namunasidir.[1] Keng ma'noda model deganda real ob'ektlarning ixtiyoriy tasviri yoki ifodasi tushuniladi. Ob'ektlar bir-biridan murakkablik darajasi bilan farq qiladi, ya'ni ularning modellari ham u yoki bu murakkablik darajasiga ega bo'ladi. Modelni tanlash vositalariga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin: abstrakt (matematik, matematik-mantiqiy), fizik (kichiklashtirilgan maketlar, trenajorlar) va biologik modellar. Shu o'rinda matematik model ham ob'ekt xususiyatlarini ifodalash usuli bo'yicha quyidagicha tasniflanadi. (1-rasm)



1-rasm. Ob'ekt xususiyatlarini ifodalash usuli bo'yicha matematik modellarni tasniflash sxemasi

Modellashtirish – bu biror muammoni hal qilish usuli bo'lib, unda o'rganilayotgan tizim haqiqiy tizimni tavsiflovchi oddiyroq ob'ekt bilan almashtiriladi va model deb ataladi.

Imitatsiya real tizimda tajriba o'tkazish imkoniyati bo'lmagan yoki real vaqtda tajribaning yuqori narxi yoki davomiyligi tufayli qo'llaniladi. Modellashtirish qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlashning eng samarali vositasidir va Richard Dokinsning so'zlariga ko'ra, “kelajakni bashorat qilishning eng qiziqarli usullaridan biri”dir. [2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Xorijiy olimlarning kompyuter imitatsion modellar haqidagi fikrlarida modellarning ta'lim sohasida ahamiyatli ekanligini ko'rish mumkin.

A.S.Akopov o'zining “Имитационное моделирование” nomli darsligida modellashtirish to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirgan:

Modellashtirish - bilish ob'ektlarini bevosita emas, balki bilvosita, ba'zi boshqa yordamchi ob'ektlarni tahlil qilish orqali o'rganishdir. Bunday yordamchi ob'ektlarni modellar deb ataymiz. Hamda modellashtirishni:

- matematik modellashtirish;
- kompyuterli modellashtirish;
- mantiqiy modellashtirish;
- fizik modellashtirish;
- imitatsion modellashtirish;
- grafik modellashtirish kabilarga ajratgan.

A.S.Akopov fikricha imitatsion modellashtirish o'rganilayotgan tizimning ishlash jarayonini kompyuterda takrorlash, bu tizimning holatini va uning alohida elementlarini model vaqtining ma'lum daqiqalarida o'rganish imkonini beradi deb hisoblaydi. [3]


A.A.Bologovanning “Имитационные компьютерные модели как инновационная составляющая образовательного процесса” nomli maqolasida imitatsion modellar xatti-harakatlarni bashorat qilish, loyiha bilan ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash va hokazolar uchun bir qator imkoniyatlarni taqdim etadi deb aytgan. Hozirgi vaqtda imitatsiya modellari orasida kompyuter imitatsion modellari eng ko'p qo'llaniladi. [4] Bu zamonaviy kompyuter texnologiyalarining ulkan imkoniyatlari bilan izohlanadi, bu esa atrof-muhit ob'ektining harakatini tovush va grafik effektlardan foydalangan holda real vaqt rejimida takrorlash imkonini beradi. Rivojlangan periferik ma'lumotlarni

ko'rsatish qurilmalari tarmog'i bilan jihozlangan zamonaviy kompyuterlardan foydalangan holda imitatsiya modellarini amalga oshirishda o'rganilayotgan ob'ekt va uning miqdoriy xarakteristikalari an'anaviy mavhum tavsifni tahlil qilishdan ko'ra aniqroq ko'rsatiladi.

R.F.Malikovning “Практикум по имитационному моделированию сложных систем в среде AnyLogic 6” o'quv qo'llanmasida imitatsion modellashtirish, axborot va kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli real ob'ektlarni modellashtirish imkoniyatlari kengaydi. Sanoat, sog'liqni saqlash, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar, fan va ta'lim kabi sohalarda murakkab ob'ektlar va jarayonlarni modellashtirish imkonini beradigan yangi usul va texnologiyalar paydo bo'ldi. Yangi modellashtirish tizimlarining (paketlarning) paydo bo'lishi kompyuter modellarining yangi turi – “imitatsiya modellari”ni yaratishga olib keldi. Imitatsion modellashtirish deganda “haqiqiy tizim yoki ob'ekt bilan tajriba o'tkazish emas, balki kompyuter dasturi ko'rinishidagi tizim modelini ishlab chiqish va dastur bilan tajribalar o'tkazish” tushuniladi. Imitatsion modellashtirish tizimda bog'lanishlarni, oqibatlarini, stoxastik o'zgaruvchilarni hisobga oladigan analitik modelini yaratishning iloji bo'lmaganda, vaqt o'tishi bilan tizimning harakatini taqlid qilish, uning turli mumkin bo'lgan ssenariylarini hisobga olgan holda qo'llaniladi. Shunday qilib, imitatsion modellashtirish kompyuterlardan foydalangan holda yuqori darajadagi axborot texnologiyasi bo'lib, murakkab tizimlarni modellashtirishda ko'pincha qo'llaniladi. [5]

Model — matematika va mantiq yordamida ifodalansa, real ob'ektning mavhum tasviri paydo bo'ladi, haqiqiy ob'ekt namunasi model sifatida o'rganilsa, aniq o'rganish amalga oshiriladi. Imitatsiya bu ikki nuqta o'rtasida joylashgan obrazdir. (2-rasm)

Mavhumlik ← Imitatsiya → Aniqlik



2-rasm. Modellashtirishda imitatsiyaning o‘rni

Hozirgi vaqtda o‘quv majmualari shaklida amalga oshirilgan kompyuter imitatsion modellarini qo‘llash orqali, o‘quv jarayonini majburiy shakldan ijodiy faoliyatga aylantiradigan, o‘quvchilarga kerakli bilimlarni o‘rganishga imkon beradigan yuqori samarali o‘qitish vositasi deb hisoblash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida kompyuter imitatsion modellarini yaratish va ulardan dars jarayonida foydalanish o‘qitish metodikalarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Уёмов А. И., Логические основы метода моделирования, М.: Мысль, 1971. — 311 с
2. Киселева, М. В. Имитационное моделирование систем в среде AnyLogic : учеб.-метод. пособие – Екатеринбург : УГТУ – УПИ, 2009. – 88 с
3. Акопов А.С., Имитационное моделирование. Учебник и практикум для академического бакалавриата-Москва: 2017–38с
4. Бологова А.А., Имитационные компьютерные модели как инновационная составляющая образовательного процесса вуза. ИСИН 1991-5497. Мир науки, культуры, образования. № 3 (40) 2013. 143-145 б
5. Маликов, Р. Ф. Практикум по имитационному моделированию сложных систем в среде AnyLogic 6 [Текст]: учеб. пособие. – Уфа: Изд-во БГПУ, 2013. – 296 с

6. Lutfillayev M.X., Meliyeva M.B Informatika fani o‘qituvchilarini kompyuter imitatsion modellar asosida kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish. Algoritmlar va dasturlashning muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Qarshi-2023. 285b

7. Lutfillayev M.X., Meliyeva M.B., Informatika fani o‘qituvchilarini kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda elektron ta’lim resurslarining ahamiyati. Raqamli ta’lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. Samarqand- 2023. 271 b.

**SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MATEMATIK ANALIZ
FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
("SONLI KETMA-KETLIK" MAVZUSI MISOLIDA)**

Lutfillayev M.X.¹, Safarov A.A.²

¹Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori

²Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada SMART ta’limga doir ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Matematik analiz fanini kompyuter imitatsion modellardan foydalanib “Sonli ketma-ketlik” mavzusi misolida dars jarayonini samaradorligini oshirishga qaratilgan metodika keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kompyuter imitatsion modellar, SMART ta’lim, smart doska, SMART texnologiyalar, matematik analiz, sonli ketma-ketlik, limit.

Аннотация. В данной статье анализируются научные исследования по SMART-образованию. Методика, направленная на повышение эффективности учебного процесса, представлена на примере темы “Последовательность чисел” с использованием компьютерных имитационных моделей предмета математического анализа.

Ключевые слова: компьютерные имитационные модели, SMART-образование, смарт-доска, SMART-технологии, математический анализ, последовательность чисел, предел.

Abstract. This article analyzes scientific research on SMART education. Methodology aimed at improving the effectiveness of the teaching process is presented on the example of the topic “Sequence of numbers” using computer simulation models of the subject of mathematical analysis.

Key words: computer simulation models, SMART education, smart board, SMART technologies, mathematical analysis, sequence of numbers, limit.

“Smart” so‘zi “aqlli” degan ma‘noni bildiradi. “Smart” tushunchasi paydo bo‘lishi bilan smart doska, smart ekranlar, internetga istalgan joydan kirish kabi tushunchalar ham ta‘lim tizimiga kirib keldi. Bu tushunchalarning har biri ma‘lumotlar tarkibini yangicha ishlab chiqish, o‘quvchiga yetkazib berish va amaliyotga joriy qilish jarayonini qayta tuzishga imkoniyat beradi [3].

Smart doska oddiy doskadan farqli ravishda internetga ulanish, sensorli ekrandan foydalanish, taqdimotlar yaratish, ma‘lumotlarni saqlash kabi ko‘plab imkoniyatlarga ega aqlli texnologiya hisoblanadi. Smart doska dasturlar orqali ishlashga asoslangan bo‘lib, bu dasturlar bajarayotgan funksiyalar uning aqlli ekanligini ko‘rsatadi [1].

Matematik analiz fanini o‘qitishni samarali va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda matematik analiz fanini o‘qitishda doska va bo‘r texnologiyasidan yoki Power Point dasturida yaratilgan oddiy taqdimotlardan foydalanilib o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tadqiqotda doska va bo‘r texnologiyasidan, Power Point dasturida yaratilgan oddiy taqdimotlardan farqli ravishda matematik analiz fanining har bir tanlangan mavzusiga doir kompyuter imitatsion modellar ishlab chiqish va bu jarayonni jonli tarzda, bilim olish uchun aqlli qilib ko‘rsatish. Ya‘ni mavzu mazmunini ochib berish uchun uning ichida bo‘layotgan jarayonlarni ko‘rsatish va uni ovoz bilan boyitish lozim. Natijada, mavzuni mazmunini ochib berish oldingi doska va bo‘r texnologiyasiga nisbatan jonli tarzda amalga oshiriladi. Bunday o‘qitish texnologiyasini SMART texnologiyalardan foydalanib o‘qitish metodikasi deb nomlash mumkin [1].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohozalarga asoslanib, oliy ta'limda SMART texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni "Matematik analiz" fani misolida tahlil qilingan. Matematik analiz fanidan "Sonli ketma-ketlik" mavzusi tanlanib, ushbu mavzuga doir tushunchalar va misollar Power Pointda yaratilgan animatsiyalar asosida tushuntirib berilgan.

Sonli ketma-ketlik tushunchasi. Agar har bir natural son n ga biror haqiqiy x_n soni mos qo'yilgan bo'lsa, u holda

$$x_1, x_2, x_3, \dots, x_n, \dots$$

ketma-ketlik (sonli ketma-ketlik) berilgan deyiladi.

1-ta'rif. Agar

$$\forall \varepsilon > 0, \exists n_0 = n_0(\varepsilon) \in \mathbb{N}, \forall n > n_0 \rightarrow |x_n - a| < \varepsilon$$

munosabat bajarilsa, a soni $\{x_n\}$ ketma-ketlikning limiti deyiladi va $\lim_{n \rightarrow \infty} x_n = a$

yoki $n \rightarrow \infty$ da $x_n \rightarrow a$ deb belgilanadi.

$$|x_n - a| < \varepsilon \Leftrightarrow a - \varepsilon < x_n < a + \varepsilon$$

Bu munosabatga ko'ra a soni $\{x_n\}$ ketma-ketlikning limiti bo'lishi ketma-ketlikning n_0 dan katta nomerli hadlari (cheksiz ko'p) a nuqtaning $U_\varepsilon(a) = (a - \varepsilon, a + \varepsilon)$ - ε atrofiga tushishi va uning tashqarisida chekli hadi qolishiga ekvivalent bo'ladi.

n -hadi $x_n = \frac{1}{n}$ formula bilan berilgan ketma-ketlikning limiti $a = 0$ ekanligini ko'rsating.

Yuqoridagi ta'rifga ko'ra, ketma-ketlikning n_0 dan keyingi barcha hadlari a

nuqtaning $(a - \varepsilon, a + \varepsilon)$ atrofida yotishi kerak. Qaralayotgan $x_n = \frac{1}{n}$ ketma-ketlik

uchun

$$\left| \frac{1}{n} - 0 \right| = \frac{1}{n} < \varepsilon, n > \frac{1}{\varepsilon} \text{ tengsizlikdan } n_0 = \left\lceil \frac{1}{\varepsilon} \right\rceil$$

a) $\varepsilon = 1 \quad n_0 = 1$

b) $\varepsilon = \frac{1}{10} \quad n_0 = 10$

bo'lganda uning limiti 0 bo'lishini quyidagi jarayon orqali ko'rsatamiz. (1-a rasm,

1-b rasm)

1-misol

<p>n-hadi $x_n = \frac{1}{n}$ formula bilan berilgan ketma-ketlikning limiti $a = 0$ ekanligini ko'rsating.</p> <p>Ketma-ketlik limitining ta'rifiga ko'ra, ketma-ketlikning n_0 dan keyingi barcha hadlari a nuqtaning $(a - \varepsilon, a + \varepsilon)$ atrofida yotishi kerak. Qaralayotgan $x_n = \frac{1}{n}$ ketma-ketlik uchun</p> <p>$\left \frac{1}{n} - 0 \right = \frac{1}{n} < \varepsilon$ tengsizlikni</p> <p>a) $\varepsilon = 1 \quad n_0 = 1$</p> <p>b) $\varepsilon = \frac{1}{10} \quad n_0 = 10$</p> <p>bo'lganda uning limiti 0 bo'lishining geometrik talqinini beramiz</p>	<table style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 10%;"></td> <td style="width: 40%;">$n = 1$</td> <td style="width: 50%;">$x_1 = 1$</td> </tr> <tr> <td>a)</td> <td>$n = 2$</td> <td>$x_2 = \frac{1}{2}$</td> </tr> <tr> <td></td> <td>$n = 3$</td> <td>$x_3 = \frac{1}{3}$</td> </tr> <tr> <td></td> <td>...</td> <td>...</td> </tr> <tr> <td></td> <td>$n = 100$</td> <td>$x_{100} = \frac{1}{100}$</td> </tr> <tr> <td></td> <td>...</td> <td>...</td> </tr> <tr> <td></td> <td>$n \in N$</td> <td>$x_n = \frac{1}{n}$</td> </tr> <tr> <td></td> <td>...</td> <td>...</td> </tr> </table> <div style="text-align: center; margin-top: 10px;"> <p style="font-size: small; margin: 0;">-1 0 $\frac{1}{n}$ $\frac{1}{100}$ $\frac{1}{3}$ $\frac{1}{2}$ 1</p> </div>		$n = 1$	$x_1 = 1$	a)	$n = 2$	$x_2 = \frac{1}{2}$		$n = 3$	$x_3 = \frac{1}{3}$			$n = 100$	$x_{100} = \frac{1}{100}$			$n \in N$	$x_n = \frac{1}{n}$	
	$n = 1$	$x_1 = 1$																							
a)	$n = 2$	$x_2 = \frac{1}{2}$																							
	$n = 3$	$x_3 = \frac{1}{3}$																							
																							
	$n = 100$	$x_{100} = \frac{1}{100}$																							
																							
	$n \in N$	$x_n = \frac{1}{n}$																							
																							

1-a rasm.

1-misol

Yuqoridagi misolda

b) $\varepsilon = \frac{1}{10}$, $n_0 = 10$

bo'lganda ketma-ketlikning 10 dan katta barcha hadlari 0 nuqtaning $\frac{1}{10}$ atrofida, ya'ni $(-\frac{1}{10}, \frac{1}{10})$ intervalda yotishini ko'rishimiz mumkin. Ko'rsatilayotgan jarayon esa berilgan ketma-ketlikning limiti 0 ekanligini aniq tasavvur qilishga yordam beradi.

b)

$n = 1$	$x_1 = 1$
\dots	\dots
$n = 9$	$x_9 = \frac{1}{9}$
$n = 10$	$x_{10} = \frac{1}{10}$
$n = 11$	$x_{11} = \frac{1}{11}$
\dots	\dots
$n = 100$	$x_{100} = \frac{1}{100}$
\dots	\dots
$n \in N$	$x_n = \frac{1}{n}$
\dots	\dots

1-b rasm.

2-ta'rif. Ketma-ketlik limiti ta'rifining inkori:

$$\exists \varepsilon_0, \forall n \in N, \exists n_0 > n \rightarrow |x_{n_0} - a| \geq \varepsilon$$

munosabat a soni $\{x_n\}$ ketma-ketlikning limiti emasligini bildiradi.

Atroflar yordamidagi ta'rifning inkori quyidagicha:

Agar a nuqtaning ixtiyoriy $(a - \varepsilon, a + \varepsilon)$ atrofining tashqarisida, ya'ni

$(-\infty; a - \varepsilon) \cup (a + \varepsilon; +\infty)$ to'plamda $\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksiz ko'p

hadlari joylashib qolsa, a soni $\{x_n\}$ ketma-ketlikning limiti bo'la olmaydi.

Misol. n -hadi $x_n = (-1)^n \left(1 + \frac{1}{n}\right)$ formula bilan berilgan ketma-

ketlikning limitga ega emasligini ko'rsating.

Berilgan ketma-ketlikning juft nomerli hadlari $x_{2k} = 1 + \frac{1}{2k}$ k -nomer

kattalashgan sari 1 nuqtaga yaqinlashib boradi. $|x_{2k} - 1| = \frac{1}{2k}$ bo'lganligi

uchun va $\frac{1}{2k} < \varepsilon$ tengsizlikka ko'ra $2k > \left[\frac{1}{\varepsilon}\right]$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi

ketma-ketlikning juft nomerli hadlari 1 nuqtaning $U_\varepsilon(1) = (1 - \varepsilon, 1 + \varepsilon)$

atrofida yotadi.

Masalan, $\varepsilon = \frac{1}{10}$ bo'lganda $2k > \left[\frac{1}{\varepsilon}\right]$, $2k > 10$ tengsizlikka ko'ra, ketma-

ketlikning 10 dan katta juft nomerli hadlari 1 nuqtaning $(1 - \frac{1}{10}, 1 + \frac{1}{10})$

atrofida yotadi.

$2k - 1 > \left[\frac{1}{\varepsilon}\right]$, $2k - 1 > 10$ tengsizlikka ko'ra, ketma-ketlikning 10 dan katta

toq nomerli hadlari -1 nuqtaning $(-1 - \frac{1}{10}, -1 + \frac{1}{10})$ atrofida yotadi (2-rasm).

2-misol. n -hadi $x_n = (-1)^n \left(1 + \frac{1}{n}\right)$ formula bilan berilgan ketma-ketlikning limitga ega emasligini ko'rsating.

Berilgan ketma-ketlikning juft nomerli hadlari $x_{2k} = 1 + \frac{1}{2k}$ k -nomer kattalashgan sari 1 nuqtaga yaqinlashib boradi. $|x_{2k} - 1| = \frac{1}{2k}$ bo'lganligi uchun va $\frac{1}{2k} < \varepsilon$ tengsizlikka ko'ra $2k > \left[\frac{1}{\varepsilon}\right]$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi ketma-ketlikning juft nomerli hadlari 1 nuqtaning $U_\varepsilon(1) = (1 - \varepsilon, 1 + \varepsilon)$ atrofida yotadi.

Masalan, $\varepsilon = \frac{1}{10}$ bo'lganda $2k > \left[\frac{1}{\varepsilon}\right]$, $2k > 10$ tengsizlikka ko'ra, ketma-ketlikning 10 dan katta juft nomerli hadlari 1 nuqtaning $(1 - \frac{1}{10}, 1 + \frac{1}{10})$ atrofida yotadi.

$2k - 1 > \left[\frac{1}{\varepsilon}\right]$, $2k - 1 > 10$ tengsizlikka ko'ra, ketma-ketlikning 10 dan katta toq nomerli hadlari -1 nuqtaning $(-1 - \frac{1}{10}, -1 + \frac{1}{10})$ atrofida yotadi.

Demak, qaralayotgan ketma-ketlikda 1 nuqtaning $(1 - \frac{1}{10}, 1 + \frac{1}{10})$ atrofining tashqarisida ham (barcha toq nomerli hadlari), -1 nuqtaning $(-1 - \frac{1}{10}, -1 + \frac{1}{10})$ atrofining tashqarisida ham (barcha juft nomerli hadlari) cheksiz ko'p elementlari yotar ekan. Bu esa qaralayotgan ketma-ketlikning limiti mavjud emasligini bildiradi.

$n = 1$	$x_1 = -2$
$n = 2$	$x_2 = \frac{3}{2}$
\dots	\dots
$n = 9$	$x_9 = -\frac{10}{9}$
$n = 10$	$x_{10} = \frac{11}{10}$
$n = 11$	$x_{11} = -\frac{12}{11}$
\dots	\dots
$n = 2k - 1$	$x_{2k-1} = -1 - \frac{1}{2k-1}$
$n = 2k$	$x_{2k} = 1 + \frac{1}{2k}$

2-rasm.

1-teorema. Sonli ketma-ketlik faqat bitta limitga ega bo'lishi mumkin [2].

Faraz qilaylik, ketma-ketlik a va b limitlarga ega bo'lsin. $\varepsilon > 0$ sonni shunday tanlashimiz mumkinki, a va b nuqtalarning ε atroflari o'zaro kesishmasin.

U holda a nuqta ketma-ketlikning limiti bo'lganligi uchun a ning ε atrofida $\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksizta elementi joylashgan bo'lib, uning tashqarisida cheklita

element yotadi. Jumladan, b nuqtaning ε atrofida cheklita element qoladi. Bu esa b

nuqtaning limit ekanligiga qarama-qarshi [2] (3-rasm).

1-teorema. Sonli ketma-ketlik faqat *bitta* limitga ega bo'lishi mumkin

Faraz qilaylik, ketma-ketlik a va b limitlarga ega bo'lsin. $\varepsilon > 0$ sonni shunday tanlashimiz mumkinki, a va b nuqtalarning ε atroflari o'zaro kesishmasin. U holda a nuqta ketma-ketlikning limiti bo'lganligi uchun a ning ε atrofida $\{x_n\}$ ketma-ketlikning cheksizta elementi joylashgan bo'lib, uning tashqarisida cheklita element yotadi. Jumladan, b nuqtaning ε atrofida cheklita element qoladi. Bu esa b nuqtaning limit ekanligiga qarama-qarshi. Demak, ketma-ketlik yagona limitga ega bo'lishi mumkin.

3-rasm.

2-teorema. Agar ketma-ketlik limitga ega bo'lsa, u chegaralangan bo'ladi.

Misol. $x_n = 2 + \frac{3}{n}$ ketma-ketlik chegaralanganligini ko'rsating.

Ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lganligi uchun

$$\forall \varepsilon > 0, \exists n_0 = n_0(\varepsilon) \in \mathbb{N}, \forall n > n_0 \Rightarrow |x_n - a| < \varepsilon \text{ yoki } a - \varepsilon < x_n < a + \varepsilon$$

bo'ladi.

$$\left| 2 + \frac{3}{n} - 2 \right| = \frac{3}{n} < \varepsilon$$

tengsizlikka ko'ra $\varepsilon = 1$ deb olsak, $n_0 = 3$ bo'ladi. Demak, $n > 3$ bo'lganda,

ketma-ketlikning hadlari $(1; 3)$ oraliqda yotadi. $M = \max\{x_1, x_2, x_3, \varepsilon\}$ deb olsak,

$\forall n \in \mathbb{N}, x_n \leq M$ bo'ladi. Bu yerda $M = 5$ (4-rasm).

2-teorema. Agar ketma-ketlik limitga ega bo'lsa, u chegaralangan bo'ladi.

Misol. $x_n = 2 + \frac{3}{n}$ ketma-ketlik chegaralanganligini ko'rsating
 Ketma-ketlik yaqinlashuvchi bo'lganligi uchun
 $\forall \varepsilon > 0, \exists n_0 = n_0(\varepsilon) \in \mathbb{N}, \forall n > n_0 \Rightarrow$
 $|x_n - a| < \varepsilon$ yoki $a - \varepsilon < x_n < a + \varepsilon$
 bo'ladi.

$\left| 2 + \frac{3}{n} - 2 \right| = \frac{3}{n} < \varepsilon$ tengsizlikka ko'ra
 $\varepsilon = 1$ deb olsak, $n_0 = 3$ bo'ladi. Demak, $n > 3$
 bo'lganda, ketma-ketlikning hadlari $(1; 3)$
 oraliqda yotadi.
 $M = \max\{x_1, x_2, x_3, \varepsilon\}$ deb olsak, $\forall n \in \mathbb{N},$
 $x_n \leq M$ bo'ladi.

$n = 1$	$x_1 = 5$
$n = 2$	$x_2 = 3,5$
$n = 3$	$x_3 = 3$
$n = 4$	$x_4 = 2,75$
$n \rightarrow \infty$	$x_n \rightarrow 2$



$M = \max\{5, 3.5, 3, 1\}$ deb olsak, $\forall n \in \mathbb{N},$
 $x_n \leq 5$ bo'ladi. Bu yerda $M = 5$.

4-rasm.

Xulosa qilib aytganda kompyuter imitatsion modellar asosidagi SMART texnologiyalardan foydalanishning maqsadi matematik analiz fanini vizualizatsiya asosida o'qitish samaradorligini oshirishdan iborat.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Lutfillayev M.X., Safarov A.A. SMART texnologiyalar asosida matematik analiz fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Raqamli ta'lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari mavzusidagi respublika ilmiy amaliy anjumani. Samarqand 2023 yil, 4-5-iyul.
2. Mardiev R., Usmanov S. Analiz asoslari fani uchun o'quv qo'llanma. Samarqand. SamDU nashri, 2021 y. - 284 b.
3. Тихомиров В.П., Днепровская Н.В. Смарт образование как основная парадигма развития информационного общества
4. Lutfillayev M.X., Safarov A.A. Dasturiy vositalar asosida matematika yo'nalishidagi fanlarni o'qitishning pedagogik jihatlari. Algoritmlar va dasturlashning muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Qarshi 2023

**ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ХАЛҚАРО ЖУРНАЛ**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБРАЗОВАНИИ**

**INTERNATIONAL JOURNAL INNOVATIVE
TECHNOLOGIES IN EDUCATION**

№5 2023

Мухаррир: А.М.Туробов
Техник муҳаррир: Ҳ.Амирдинов
Мусахҳих: Ш.Абдурахимов

Журнал таҳририяти манзили

www.samdchti.uz

140104, Самарқанд ш., Бўстонсарай кўчаси, 93.

Web: <http://www.samdchti.uz/>;

E-mail: info@samdchti.uz; maxmud@inyaz.uz

Тел: (+99866) 238-29-41, (+99890) 603-81-88

Контакт редакций журналов.

www.samdchti.uz

140104, г. Самарқанд, улица Бустонсарай, 93.

Web: <http://www.samdchti.uz/>;

E-mail: info@samdchti.uz; maxmud@inyaz.uz

Тел: (+99866) 238-29-41, (+99890) 603-81-88

Editorial staff of the journals of

www.samdchti.uz

140104, Samarkand region, Bustonsaray street, 93

Web: <http://www.samdchti.uz/>;

E-mail: info@samdchti.uz; maxmud@inyaz.uz

Phone: (+99866) 238-29-41, (+99890) 603-81-88

Босишга 04.10.2023 йилда рухсат этилди.
Қоғоз бичими 60x81_{1/8}. Офсет қоғози. Шартли босма табоғи 6,5.
Нашриёт ҳисоб табоғи 7,0. Адади 50 нусха. Буюртма № 30/12.

СамДЧТИ нашр-матбаа марказида чоп этилди.
Манзил: Самарқанд шаҳри, Бўстонсарой кўчаси